

Toshkent kimyo-texnologiya institutining
2024-yil 10-dekabrdagi 445-son
buyrug‘iga 2-ilova

**Toshkent kimyo-texnologiya institutida davomatni yuritish jarayonida
talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo‘yicha
ANIQ MEZONLAR**

T/r	Sababli qilish bo‘yicha aniq mezon	Asoslovchi hujjat	Qoldirilgan darsslarni sababli deb hisoblashning eng ko‘p muddati
1.	Talabalarning o‘qishga vaqtincha layoqatsizligi (kasalligi) sababli	Ta’lim olayotgan shaxslar uchun mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasi (095\x shakl)	30 kungacha*
2.	Nogironligi mavjud talabalarning mavsumiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi sababli	Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi ma'lumotnomasi	Ko‘rikdan o‘tish muddatiga
3.	Talabaning nikoh to‘yi sababli	Talabaning nikoh to‘yidan oldin bergen arizasi va nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma	10 kungacha
4.	Talabaning yaqin (birinchi darajali) qarindoshining to‘yi yoki vafoti sababli	Talaba arizasi, asoslovchi hujjat	5 kungacha
5.	Talabaning homiladorlik davrining og‘ir kechishi, tug‘ruqqacha va tug‘ruqdan keyingi ta’til sababli	Talaba doimiy ro‘yxatdan o‘tgan tibbiy muassasaning tibbiy ma'lumotnomasi, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma	30 kungacha*
6.	Talabaning turli xil musobaqalar va tadbirdarda qatnashishi sababli	Tegishli vazirlilik, idoralarning so‘rov xati yoki oliv ta’lim tashkiloti rektorining buyrug‘i	Tadbir muddatiga, 30 kundan ko‘p bo‘limgan muddatga*
7.	Tabiiy ofatlar yoki baxtsiz hodisalar sababli	Tegishli idoralar ma'lumotnomasi	Ma'lumotnomada belgilangan muddatlarga, 30 kundan ko‘p bo‘limgan muddatga*
8.	Xorijlik talabalarning viza muddatlarining tugashi sababli	Pasport nusxasi va xalqaro bo‘lim bildirgisi	Viza olish muddatiga, 30 kundan ko‘p bo‘limgan muddatga*

Izoh.

* Qoldirilgan dars mashg‘ulotlari bir semestr davomida 30 kundan oshgandan so‘ng, sababli bo‘lganligidan qat‘iy nazar talaba belgilangan tartibda akademik ta’tilga chiqariladi yoki talabalar safidan chetlashtiriladi.

Qoldirilgan darslarning sababli ekanligini asoslovchi hujjatlar rasmiylashtirilgan yoki darslarga ishtirok etishi boshlangan kundan so‘ng 10 kun muddatgacha taqdim etilganda inobatga olinadi.

Oliy ta’lim tashkiloti mazkur ilovada nazarda tutilganidan boshqa kuzatiladigan holatlarda talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo‘yicha qo‘sishimcha mezonlarni belgilashi mumkin.

"HEMIS" axborot tizimida davomatni yuritish jarayonida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli etib belgilash dekan yoki "Registrar ofisi" rahbari tomonidan amalga oshiriladi, bunda asoslovchi hujjatlar tyutorlar tomonidan taqdim etiladi.